

СЕДЬМАЯ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ  
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ  
«TURKLANG 2023»

---

Труды конференции

КАЗАНЬ  
2023

УДК

## M.KOSHG‘ARIYNING “DEVON”IDAGI BA’ZI ETNONIMLAR XUSUSIDA

*M. Safarova, Z. Sattorova*

*BuxDU*

maftunasafarova@gmail.com, zsattorova@gmail.com

Ushbu maqolada M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otut turk” asarida keltirilgan turkiy qabila va urug‘larning ba’zilari xususida fikr yuritilgan. Ularning leksik-semantik, etimologik xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Etnonim, xalq, millat, qabila, urug‘, nom, o‘g‘uz, qiniq, qayig‘, bayonlar kabi.

## ON SOME ETHNONAMES IN “DEVON” BY M.KOSHG‘ARIY

*M. Safarova<sup>1</sup>, Z. Sattorova<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>(Teacher of BuxSU)*

*<sup>2</sup>(4 th stage student of BuxSU)*

maftunasafarova@gmail.com

This article discusses some of the Turkic tribes and clans mentioned in M.Koshg‘ariy’s “Devoni lug‘otut turk” work. Their lexical-semantic, etymological features are described.

**Keywords.** Such as ethnonym, people, nation, tribe, clan, name, oguz, kinik, kайik, bayuns.

## О НЕКОТОРЫХ ЭТНОНИМАХ В «ДЕВОН» М. КОШГАРИЙ

*M. Сафарова<sup>1</sup>, З. Сатторовва<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>(преподаватель БухГУ)*

*<sup>2</sup>(студентка 4 курса БухГУ)*

maftunasafarova@gmail.com

В данной статье рассматриваются некоторые тюркские племена и роды, упомянутые в труде М. Кошгарий «Девони луготут тюрк». Описаны их лексико-семантические, этимологические особенности.

**Ключевые слова.** Такие как этноним, народ, нация, племя, род, имя, огуз, киник, кайик, баюны.

Ma'lumki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otut turk” asari qardosh turkiy tillar haqida yozilgan qomusiy asar hisoblanadi. Asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida

yashagan turkiy urugʻ va qabilalar, ularning turmush tarsi, ijtimoiy kelib chiqishi, tili, dini, tarixiga oid maʼlumotlar berilgan.

Muallif bu asarni xalq orasida yurib, xalqlar va qabilalar bilan bevosita suhbatlashib yozganini taʼkidlaydi.

U qabila va urugʻlarning turmush tarzi, anʼanalari, suhbatlarini kuzatishi natijasida “Devonu lugʻotut turk” asari dunyoga kelganligini eʼtirof etadi. Olim asarida koʻpgina qabila va urugʻ nomlari keltirib oʻtgan. Masalan, oʻgʻuzlar, qiniqlar, qayigʻlar, bayunlar, ivalar, salgʻurlar, avsharlar, begtililar, bukduzlar, bayatlar, yazgʻirlar, eymurlar, qoraboʻluklar, igdarlar, uragirlar, tutirqalar, ulayundlugʻlar, toʻgarlar, pachanaklar, chuvaldarlar, chepnilar, charuqlugʻlar, yagʻmo, tuxsi, yamak, argʻu, chigil, udunlar (Xoʻtanda yashovchilar), ogʻrak, (Qorayigʻach deb atalgan chegarada yashovchi bir turk aymogʻi), elkabuloq, arabut (Tamari hindiy), aramut (Uygʻurlar yaqinida yashovchi bir turk qabilasi), qarluq, kanjak, sumlum (Turk tilini bilmaydiganlar), sumlim tat (turk tilini bilmaydigan fors), argʻu, bulaq va boshqalar.

Biz yuqorida sanab oʻtilgan qabila nomlarining izohini topishga harakat qildik. Aytish joizki, 1960-63-yillarda S.Mutalibov tomonidan nashrga tayyorlangan “Devonu lugʻotut turk” asarining izoh qismida asarda keltirilgan barcha qabila nomlariga alohida toʻxtalib oʻtilmagan. Faqatgina oʻgʻuz, chigil, yagʻmo, tuxsi, qarluq, kanjak, argʻu kabi qabilalar haqida maʼlumotlar keltirilgan.

*Oʻgʻuz qabilasi.* Oʻgʻuz qabilasi eng qadimgi va nufuzli qabilalardan biri sifatida Oʻrta Osiyo xalqlari va ularning tillari taruxuda alohida oʻrin tutadi. Shu sababdan unga tarixchi olimlar va tilshunoslar juda ilgari zamonlarda jiddiy qiziqib keldilar. Bu masala yuzasida muhim ilmiy tekshirish amalga oshirildi. Ayniqsa, bu urugʻ etimologiyasiga juda koʻp olimlar qiziqish bildirganlar. Chunonchi, V.Bang, V.Radlov, A.N.Bernshtam, D.Sinor, G.Ramsted ishlari shu jumladandir. Biroq bu tekshiruvlarda masala toʻla hal etilmagan. Hatto Oʻgʻuzxon toʻgʻrisida ayrim uydirma, afsonalar ham bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Oʻgʻuz qabilasi haqida “Risolutus safo” va Bichurin asarida ham maʼlumot keltirilgan. Lekin bu asarlarda ham masala toʻla toʻkis yoritilgan emas. Shuning uchun bu haqida yetuk tadqiqotchi M.Koshgʻariyning maʼlumoti benihoya muhimdir. M.Koshgʻariy oʻz asarida bu soʻzning etimologiyasini aniqlashga emas, balki uning juda qadimgi ota-bobolarga borib taqalishini aytish bilan cheklangan. Bunday cheklanish tasodif emas, albatta. Aksincha, bu hol oʻgʻuz soʻzining antroponim sifatida yuzaga kelgani, soʻng maʼlum sharoitda qabila nomiga aylangani bilan bogʻliq. M.Koshgʻariy oʻz asarida oʻgʻuzlarn-

ing u davrda tutgan mavqeyi, tili, kasb-u kori, urug‘-aymoqlari, turar joylari va boshqalarni aniq faktlar asosida yoritib beradi.

*Chigil qabilasi.* Ushbu qabila “Devon”da eng asosiy o‘rinni ishg‘ol qiladi. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, o‘g‘uzlar Jayhundan quyi Chingacha bo‘lgan xalqlarni chigillar deb hisoblar edilar. Devonda chigil ismi Iskandar Zulqarnayn tomonidan berilgani aytilgan. Chigillar eng eski xalqlardan biridir. Navoiy ma‘lumot ham M.Koshg‘ariy fikrlarini tasdiqlaydi. U Iskandar Zulqarnayn yurishida, Movaroun-nahrda chigil, yag‘mo nomlarinigina tilga oladi:

Chigil birla Yag‘modan aylab ubur,  
Nechunkim chamandin sabovu dabur. (“Xamsa”dan)

Ibnul Asir tarixi qoraxoniylar davrida Samarqandga qilingan hujumda chigil askarlari boshchilik qilganini yozadi. Haqiqatda ham chigillar O‘rta Osiyodagi eng eski xalqlardan ekanini devondagi ko‘p ma‘lumotlar isbotlaydi. Mahmud Koshg‘ariy chigillarning o‘g‘uzlar bilan juda qadimdan to‘qnashib kelganini, ularning bir-biriga qarshiligi devon yozilgan davrda ham davom etishini yozar ekan, o‘g‘uzlar tilidagi kamchiliklarni ham ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga ularga qarshi til jihatdan ishonchli qabilalar boshida chigillar turadilar.

*Yag‘mo qabilasi.* Yag‘mo Tiroz yaqinidagi shahar. U yerda yashovchi qabila ham yag‘mo deb atalgan. Uni qora yag‘mo deb ham yuritilgan edi. Yag‘molarning bir qismi Ila vodiysining o‘ng qirg‘og‘ida, ba‘zilari jikillar bilan birga yashar edi.

“Devon”dagi ma‘lumotlar yag‘molarni jangovar xalq sifatida tanitadi. “Devon”da ularning urf-odatlariga va til xususiyatlariga doir ma‘lumotlar ancha bor. Yag‘molarda savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy qilgan edi. Ulardagi saroybonlarning ish usuliga doir ma‘lumot ham xarakterlidir. Ularning tillari jikil va tuxsilar tili bilan yaqin bo‘lsa ham, o‘ziga xos ayrim xususiyatga ega bo‘lgan.

*Tuxsi qabilasi.* Tuxsi qabilasi haqida asarda ma‘lumot yetarli. Ular e‘tiborli qabilalardan sanaladi. Tuxsilarning tillari yolg‘iz turkcha bo‘lib, asosan, Qayos shahrida yashaydilar (Qayos 3ta katta rayondan iborat bo‘lgan shahar: 1) Soblig‘ Qayos; 2) O‘rung Qayos; 3) Qora Qayos).

Ular til jihatdan chigil, yag‘moga yaqindir. “Devon”da ularning yashash joylari ham bir-biriga yaqin, aralash bo‘lgani to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Mahmud Koshg‘ariy “Devon”i 3-tomining 52-betida Bista so‘zini izohlar ekan, bunday deb yozadi: Bista chetdan kelgan savdogarni

uyga qoʻndiradi, mollarini sotib beradi, sotguncha oʻzini ham, molini ham boqadi; ketar vaqtida mol boshiga maʼlum miqdorda haq oladi. Men buni, – deydi, Mahmud Koshgʻariy, chigil, yagʻmo, tuxsilarda oʻz koʻzim bilan koʻrdim.

Tuxsilar haqida asarda yana koʻp yerda maʼlumotlar bor boʻlib, ulardan ham Tuxsilar tilda, shaharda, feʼl-u odatda chigil, yagʻmolarga yaqin, lekin ularga nisbatan kichikroq qabila ekani koʻrsatiladi.

*Qarluq qabilasi.* Qarluqlar turklarning bir turi boʻlib, vabarlilar (koʻchmanchilar) va oʻgʻuzlardan boshqadir. Ular aslida turkmanlardandir.

Mahmud Koshgʻariy qabilalarni bayon qilgan maxsus faslda qarluqlarni koʻrsatmaydi. Lekin qarluq asarning toʻqqiz yerida uchraydi.

Bu oʻrinda keltirilgan maʼlumotlar ularni yetakchi qabila tariqasida emas, aksincha, boshqa qabilalarga tobe, ikkinchi darajali qabila, turkmanlarning bir toifasi sifatida koʻrsatadi.

“Devon”da qarluqlarning Choʻgʻilan degan boshliqlari ismidan boshqa bir muhim maʼlumot berilmagan. Ularning maxsus shaharlari ham koʻrsatilmagan. Til jihatdan qarluqlarning bir qismi oʻgʻuzlarga, bir qismi yagʻmo, chigillarga qoʻshilishi mumkin, Tarixiy asarlarda qarluqlar nomi boshqa qabilalarning nomlarig nisbatan mashhurroq ekanligini nazarga olsak, ularning ilgari mashhur boʻlgani va devon yozilgan davrda ikkinchi darajali qabilalarga birikib ketgani anglashiladi. *Kanjak qabilasi.* Kanjaklar ikki tilda soʻzlashuvchi qabilalar hisoblanadi. Shuning uchun ular tillarida ayrim kamchiliklar uchraydi. Kanjaklarning biror maxsus shaharlari xususida maʼlumot keltirilmagan. Qoshgʻarda kanjakcha soʻzlashuvchi sulola borligi haqida aytilgan ”Devon”da kanjaklarga nisbatan berilgan maxsus soʻzlar asosan tokchilik, bogʻchilikka oidligi xarakterlidir. Masalan: bulduni uzum – mayiz saqlanadigan joy; boʻshunjak – uzum urugʻi; nabzi – uzum uzilgandan keyin tokda qolgan shingil-shapoq; lujnat – xirmon qilishda qishloq ahllari bir-biriga odam yuborib, hashar qilishi; tabchang – balanddagi toklarni kesishda ustiga chiqishga qoʻllaniladigan uch oyoqli asbob.

*Argʻu qabilasi.* Asardagi maʼlumotiga koʻra, argʻular Oʻzgand va Azgish shaharlarida yashar edilar. Argʻu til xususiyatlarining bir qismi hozirgicha yetib kelishi, ular juda keng hududda yashovchi, hozirgi Chimkentdan Toʻqmoqqacha boʻlgan joylarda va butun Fargʻona vodiysida yashagan bir qancha qabilalar orasida koʻp nufuzga ega boʻlgani va mamlakatni idora etish u davrda koʻproq ularning qoʻlida boʻlgani xususida fikrlar keltirilgan.

Asarda arg‘u qabilasining keyinchalik XI asrda mavqeyi ancha o‘zgarishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan. So‘nggi davr tarixiy asarlarida arg‘u qabilasi nomining uchramasligi ular mavqeyining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Lekin arg‘ularning yuqorida ko‘rsatilgan hududlarda yashab kelgani ma’lum. Mahmud Koshg‘ariy arg‘ular bilir so‘zini bilur tarzida talaffuz qilishini ta’kidlaydi, ya’ni o‘tgan zamon fe’l yasovchi affiksni “u” unlisi bilan aytadilar: bardum, keldum kabi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otut turk” asari turkiy xalqlar tili, dini, madaniyati, turmush tarzi xususida qimmatli manba bo‘lishi bilan juda ahamiyatlidir. Asarda ko‘plab qabila va urug‘ nomlarining atalish sabablari, semantik xususiyatlari, ularning turmush tarzi ifoda etilgan. Bu esa tilshunoslik, tarix, geografiya va boshqa fanlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Кошғарий М. Девону луғотит турк. I том. – Т.: 1960. 499 б.
2. Dosimov Z., Egamov Kh. A brief annotated dictionary of place names. – T.: Teacher, 1977. – B. 48.
3. Kilegev B.E. Onomasti cs // Study guide. – Bukhara, Durdona, 2023. – 180 p.
4. Kilegev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104–107.
5. Kilegev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05.
6. Kilegev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.
7. Safarova M.Z. Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo‘llanilishi. Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya. 2021.

## СОДЕРЖАНИЕ

## ФИЛОЛОГИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ И КОММУНИКАЦИЯ

|   |     |
|---|-----|
| INDIVID VA KOMMUNIKATSIYA.....  | 5   |
| ЛЕКСИКА ОРХОНСКИХ ПАМЯТНИКОВ И ЕЁ ОТРАЖЕНИЕ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЭПОСЕ «ҚЫРҚ ҚЫЗ».....                    | 14  |
| ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УЧЕБНОГО ДИСКУРСА И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....                             | 20  |
| МЕСТО ЛИНГВИСКОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ УЗБЕКСКИЙ МЕНТАЛИТЕТ, В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ..... | 27  |
| КОММЕНТАРИИ К ЖАНРАМ, СВЯЗАННЫМ СО СКАЗКАМИ.....  | 34  |
| ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПОРТРЕТЕ.....  | 39  |
| ЭТНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРИФРАСОВ.....                                      | 43  |
| ДЕТСКИЕ ПЕСНИ, СОЗДАННЫЕ НА МОТИВЫ НАРОДНЫХ ПЕСЕН.....  | 50  |
| ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВ В СЛОВАРЯХ С НАРЕЧНЫМИ -ОНА АФФИКСАМИ.....   | 54  |
| ИЗУЧЕНИЕ АРАБСКИХ СОГЛАСНЫХ ГРУППАМИ.....   | 59  |
| ОКАНЬЕ В СИСТЕМЕ ГЛАСНЫХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА.....  | 65  |
| ПЕРЕЁНИМЫ – ОДИН ВИД ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ.....   | 70  |
| СЕМАНТИКА ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МЫШЛЕННЫЕ ДНИ» АБДУЛЛЫ КАДИРИ.....                                  | 74  |
| ГЕНДЕРНОЕ НЕРАВЕНСТВО И НАСИЛИЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОРЕЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ.....             | 80  |
| СОСТАВ УЗБЕКСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ.....  | 91  |
| SOME THOUGHTS ON TEACHING VISUAL EXPRESSIVENESS OF THE UZBEK LANGUAGE IN RUSSIAN-SPEAKING GROUP.....  | 100 |
| REALIYALAR MILLIY MADANIYATNI ANGLATUVCHI BIRLIK SIFATIDA.....  | 106 |
| INTONEMES ARE REPRESENTATIVES OF THE INTERNAL STATE OF THE COMMUNICANT.....                           | 111 |
| THE IMPORTANCE OF PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF LANGUAGE TASKS IN INTERNATIONAL COMMUNICATION.....     | 118 |
| ХУДОЖЕСТВЕННО-КОМПОЗИЦИОННЫЕ ЗАДАЧИ ЭПИСТОЛАРНОЙ ПУБЛИЦИСТИКИ И ЛЕТРИСТА В ДЕТСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ..... | 125 |
| LINGUISTIC CULTURE UZBEK CULTURE.....   | 131 |
| ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА.....                                | 137 |
| ИЗУЧЕНИЕ КАДРОВ В ПОСЛОВИЦАХ С УЧАСТИЕМ «ВЕРБЛЮДА».....   | 142 |
| ZAMONAVIY LUG‘ATCHILIK TARAQQIYIT BOSQICHLARI.....  | 148 |
| ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА.....  | 152 |

|   |     |
|---|-----|
| ETHNOONYMS OF BUKHARA .....   | 157 |
| “TEMUR MALIK” ASARIDAGI GIDRONIMLAR .....   | 164 |
| MAIN GENRES AND FEATURES OF VIRTUAL COMMUNICATION .....   | 169 |
| ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКА И СТИЛЯ В ГРАЖДАНСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКЕ .....   | 173 |
| О ВЫРАЖЕНИИ НЕКОТОРЫХ АВТОРСКИХ РЕЧЕВЫХ НЕОЛОГИЗМОВ В<br>ПОЭЗИИ МУХАММАДА ЮСУФА .....                                   | 179 |
| XALQ OG’ZAKI IJODIDA MAKTUBLAR .....  | 186 |
| ПРОБЛЕМА КОНЦЕПТУАЛЬНОГО И НОВЕРБАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ...   | 190 |
| XALQ SHE’RIYATIDA GUL SO’ZI ASOSIDA OBRAZLILIKNING VUJUDGA<br>KELTIRILISHI .....  | 198 |
| ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКОЙ<br>ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ АНВАРА ОБИДЖАНА) .....              | 202 |
| ЖИВОТНЫЕ СИМВОЛЫ В ТВОРЕНИЯХ РАУФ ПАРФИ .....   | 207 |
| ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ РАМЗЛАРИ .....   | 211 |
| ETYMOLOGICAL EXPLANATION OF THE PHENOMENON OF SONG AND THE<br>PROFESSION THAT DENOTES IT .....                          | 215 |
| СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ<br>ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ ОБ УЗБЕКСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ФОЛЬ-<br>КЛОРЕ ..... | 220 |
| GENESIS AND DEVELOPMENT OF THE CONCEPTION AND THE CONCEPT<br>“ROAD” .....   | 224 |
| ОБРАЗНЫХ ПРИЕМОВ И ПОЭТИЧЕСКИХ ФИГУР, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ<br>ТЕКСТОВ ЭССЕ .....   | 228 |
| ПРО УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ АНЕКДОТОВ .....  | 233 |
| О НЕКОТОРЫХ ЭТНОНИМАХ В «ДЕВОН» М.КОШГАРИЙ .....  | 240 |
| YOZUVLAR TARAQQIYOTIDA BOBURNING O’RNI .....  | 245 |
| ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПАРЕМ, СОЗДАН-<br>НЫХ НА ОСНОВЕ ЛСГ «НАСЕКОМЫХ» .....                         | 251 |
| J. K. ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING<br>LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI .....                        | 257 |
| THE PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF COORDINATING CONJUNCTIONS  | 268 |
| ЧАСТНЫЕ ТЕРМИНЫ В НЕЧАСТНЫХ ДИСКУРСАХ .....   | 273 |
| КИНОЛИНГВИСТИКА В КАЧЕСТВЕ ОТРАСЛИ ЯЗЫКОЗНАНИЯ .....  | 278 |
| НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ УПОТРЕБЛЕНИИ СЛОВ В МЕДИЦИН-<br>СКИХ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ .....                                   | 283 |
| ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И МИ-<br>РОВОГО ОБЩЕСТВЕННО-ЛИТЕРАТУРНОГО ДВИЖЕНИЯ .....             | 287 |
| ИМЕНА, ОБРАЗОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ ИМЕНИ ЧЕЛОВЕКА. (БУХАРСКАЯ<br>ОБЛАСТЬ, ВОБКЕНТСКИЙ РАЙОН НА ПРИМЕРЕ) .....                | 294 |